



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



MANTIQ FANIDAN  
O'QUV DASTURI (SILLABUS)

|                    |  |
|--------------------|--|
| Bilim sohasi:      | 100000 – Ta'lím  |
| Ta'lím sohasi:     | 110000 - Ta'lím  |
| Ta'lím yo'nalishi: | 60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari<br>va huquq ta'limi |

Chirchiq - 2024

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining  
2024 -yil "22.06" dagi 19-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**

**G.G'. G'affarova** CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi" kafedrasini professori, fals.f.d.

**Taqrizchilar:**

**I.B. Siddiqov** - Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrasini professori  
v.b., fals.f.d.

**B.M. Qandov** - CHDPU "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi" kafedrasini dotsenti, fals.f.b.f.d. (PhD)

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar  
fanlar fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasining  
2024 -yil "22.06" dagi 12 - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va  
tasdiqlashga tavsija qilindi.

**Kafedra mudiri:**

**G.G'.G'affarova**

O'quv dasturi (sillabus) Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar  
fanlar fakulteti kengashining 2024 -yil "26".06" dagi 12 - sonli  
majlisida muhokamadan o'tkazilgan.

**Fakultet dekani:**

**R.A.Ikramov**

## O'QUV DASTURI (SILLABUS)

Gumanitar fanlar

fakulteti

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat  
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

### Umumiy ma'lumotlar

**Fan nomi:** Mantiq

**Fan kodi:** Logik 6354

**Kredit miqdori:** 4

**Semestr:** 6

**Kafedra nomi:** Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

**Fan o'qituvchisi:** G'affarova Gulchehra G'ulamjanovna

**Email:** gafforovagulchehra3@gmail.com

**Fan turi:** Tanlov

**Ta'lif shakli:**

Kunduzgi

**Baholash shakli:**

Imtihon

**Fan tili:**

O'zbek

### Fanning qisqacha mazmuni

"Mantiq" inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallahsgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma'lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o'yaydi. Mantiq bilish, to'g'ri fikrlash metodlarini o'rganuvchi fandir.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarni to'g'ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalarini bilan tanishtirish asosida mantiqan izchil, asosli muhokama yuritishga o'rgatish, aniq fikrlay oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ularda yangi turmush va tafakkur tarzini qaror toptirish asosida etuk mutaxassis bo'lishlari, yangi demokratik jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylanishi uchun zarur ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifasi** – talabalarga to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirishga yordam berish, ularning mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish; xato fikrlarning paydo bo'lish sabablari bilan tanishtirish, ularning oq-qorani tushunib etishiga, buzg'unchi g'oyalar bilan yaratuvchi g'oyalar, shu jumladan, milliy g'oyani ajrata oladigan bo'lishiga erishish; ularni xulosaviy bilimlar hosil qilish, muammolarni yaratish va hal etish, farazlarni ilgari surish va asoslashning usullari, hamda qoidalari bilan tanishtirish; talabalarga muloqat davomida savol-javob qilish, babs yuritish sir-asrorlarini o'rgatish; talabalarni ilmiy bilimlar mantiqiy tuzilishi hamda ilmiy nazariyalarning mantiqiy qurilishi bilan tanishtirish; inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o'rgatish, tafakkurni rivojlantirish, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qilish, fikrlash madaniyatini o'strish, fikrni to'g'ri qurish malakasini rivojlantirish va boshqalar.

## Ta'lim natijalari:

### **Kursni tugatgan talabalar:**

- \* Talaba mantiqiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlarini, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tizimli-tahliliy yoritib bera olishi;
- \* mantiqiy tafakkur madaniyatining inson hayat va fikrlash tarzining takomillashtirishdagi roli va ahamiyatini bilishi;
- \* to'g'ri muhokama yuritishning mantiqiy shakllari va qoidalarini o'zlashtirishi, mustaqil fikrlash madaniyatini yuksaltirish orqali xato buzg'unchi g'oyalar bilan yaratuvchi g'oyalar, shu jumladan, milliy g'oyani ajrata oladigan bilimga ega bo'lishi;
- \* kasbiy faoliyatda mantiqning metodologik ahamiyatini tahlil qilish, muloqat davomida savol-javob qilish, bahs yuritish sir-asrorlarini auditoriyaga ravon tilda izohlab bera olish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi;
- \* dunyoqarashlar erkinligini ta'minlash jarayonida jamiyatning boshqa a'zolarini barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish, Vataniga va milliy qadriyatlariga sadoqatli, har tomonloma yetuk komil insonlarni tarbiyalash **tajribasiga** ega bo'lishi lozim;
- \* global jarayonlarda analistik va sintetik, mantiqiy tafakkurning roli, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati haqida darsda turli xil manba va vositalardan foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi kerak.

### **Kurs natijasiga ko'ra ega bo'ladigan kompetensiyalar (KK):**

- Kelajakdagi kasbiy faoliyatda tarbiya va huquq fanlaridan dars mashg'ulotlarini olib borish, auditoriyaga mos va tushunarli tarzda va shaklda mantiq qonuniyatlarini va kategoriylarini izohlab bera olish **ko'nikmalariga** ega bo'ladi (**KK-1**);
- Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etadi (**KK-4**).

## Fan mazmuni

### Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

|                       |  |
|-----------------------|--|
| <b>M1</b>             | Mantiq fanining predmeti, maqsad va vazifalari                 |
| <b>M2</b>             | Mantiq fani shakllanishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari |
| <b>M3</b>             | Mantiq ilmi va til   |
| <b>M4</b>             | Mantiqning asosiy qonunlari.                                   |
| <b>M5</b>             | Tushunchalar tafakkur shakli sifatida                          |
| <b>M6</b>             | Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar                          |
| <b>M7</b>             | Hukm (mulohaza)  |
| <b>M8</b>             | Murakkab hukm va uning turlari                                 |
| <b>Oraliq nazorat</b> |  |
| <b>M9</b>             | Xulosa chiqarish   |
| <b>M10</b>            | Xulosa chiqarish turlari                                       |
| <b>M11</b>            | Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari    |
| <b>M12</b>            | Muammo. Gipoteza. Nazariya                                     |

|   |  |
|---|--|
| M13   | Dialektik logika.  |
| M14   | Ilmiy nazariganing mantiqiy strukturasi, shakllanishi va rivojlanishi                          |
| M15   | Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyotiga, mamlakatni modernizatsiyalash jarayoniga ta'siri |
| <b>Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'ulot (S)</b> |  |
| S1  | Mantiq fanining predmeti, maqsad va vazifalari   |
| S2  | Mantiq fani shakllanishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari                                 |
| S3  | Mantiq ilmi va til   |
| S4  | Mantiqning asosiy qonunlari.   |
| S5  | Tushuncha tafakkur shakli sifatida   |
| S6  | Tushunchalar o'rtaqidagi munosabatlar  |
| S7  | Hukm (mulohaza)  |
| S8  | Murakkab hukm va uning turlari   |
| S9  | Xulosa chiqarish   |
| S10   | Xulosa chiqarish turlari   |
| S11   | Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari                                    |
| S12   | Muammo. Gipoteza. Nazariya   |
| S13   | Dialektik logika.  |
| S14   | Ilmiy nazariganing mantiqiy strukturasi, shakllanishi va rivojlanishi                          |
| S15   | Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyotiga, mamlakatni modernizatsiyalash jarayoniga ta'siri |

### O'qitish va o'rganish usullari

Modul ma'ruzalar va seminar auditoriya mashg'ulotlari hamda talabalarning mustaqil ta'lif faoliyatini orqali tashkil etiladi. Ma'ruzalarda mantiq kursi mavzularini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar beriladi. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'lifning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Seminar mashg'ulotlarda kursdan olingan dars va uning aosisy maqsadi yoshlarga jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning mohiyatini to'g'ri idrok qilish va shu asosda o'z kasbiy faoliyatini samarali olib borishda qo'llay olish imkoniyatlarini tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lif faoliyatida talabalar mavzularini chuqur o'rganib, adapbiyotlar va ilmiy журнallar hamda manbaalardan foydalangan holda mavzularni tahlil qilishi lozim.

Kurs ishi mavzulari asosda talaba kurs ishi yozish yo'riqnomasi asosida tanlangan mavzuni tahliliy o'rganishi va yoritishi, shuningdek taqdimot qilib himoya qila olishi talab etiladi.

| Mashg'ulot turi    | Ajratilgan soat |
|--------------------|-----------------|
| Ma'ruza            | 30              |
| Seminar mashg'ulot | 30              |
| Mustaqil ta'lif    | 60              |

|   |     |
|---|-----|
| Kurs ishi                                     | -   |
| Talabalarning jami o'quv va o'qitish soatlari | 120 |

### Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari

Talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash talabaning faolligi, oraliq nazorat, yakuniy nazorat hamda mustaqil ta'limi bilimni baholash orqali amalga oshiriladi.

- **Oraliq nazorat** - bu professor-o'qituvchi tomonidan talabaning modulning birinchi qismi bo'yicha olgan bilimlari va amaliy ko'nikmalarini baholashning muhim bosqichi bo'lib, kelajakda shu fan bo'yicha o'zlashtirishni prognoz qilish ko'rsatkichidir. Oraliq nazoratda talabalar bilimini baholash og'zaki savol-javob va yozma ish orqali amalga oshiriladi. Talaba oraliq nazoratdan o'tmagan taqdirda unga yana 2 marta qayta topshirish imkonи beriladi. **Umumiy baholashning 20 foizi.**

- **Mustaqil ta'limi bilash** – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingen natijalarini tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. **Umumiy baholashning 50 foizi.**

- **Yakuniy nazorat** - bu professor-o'qituvchi tomonidan talabaning kurs bo'yicha olgan bilimlari va amaliy ko'nikmalarini baholashning umumlashtiruvchi bosqichi hisoblanadi. Yakuniy nazorat yozma ish, og'zaki yoki test shaklida o'tkazilishi mumkin. **Umumiy baholashning 30 foizi.**

Baholash, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari (vazifalari) kurs professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi, oldindan moderatsiyadan o'tkaziladi va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis, shaffof va aniq baholashga imkon berishi kerak.

Talaba akademik huquqbazarlikka (qidabuzarlik) olib keladigan har qanday harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Masalan, plagiat, o'zar kelishib olish, natijalarini qalbakilashtirish, imtihon jarayonida qidabuzarlik, ya'ni konsept va shpargakalardan, telefon va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishi, imtihon olinadigan xonaning ichida yoki tashqarisida boshqalar bilan muloqot qilishi ta'qilanganadi. Bunda aybdor talabalar nazorat yoki imtihon jarayonidan chetlashiriladi to'plagan bali yoki bahosi nolga aylantiriladi.

Fan (kurs) xususiyatlaridan kelib chiqib baholash va nazorat qilish mezonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

| Asosiy adabiyotlar                         |   |   |
|--|---|---|
| 1.   | Qandov B.M. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi Chirchiq book”, 2022. - 420 b.                 |  |
| 2.   | Saloxov A.O. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Lesson press” nashriyoti, 2021. - 436 b.                  |  |
| 3.   | Шарипов М., Файзихужаева Д. Мантиқ. Ўқув қўлланма. – Т.: Гъ.Фулом номидаги нашриёт, 2004.               |  |
| Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar |   |   |
| 1.   | O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023.                                      |   |
| 2.   | Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. - 440 bet. |   |
| 3.   | Тўраев Б. Мантиқдан амалий машғулотлар. -T., 2009.  |   |
| 4.   | Хайруллаев М., Ҳакбердиев М. Мантиқ. -Т: "Ўқитувчи", 1993.  |   |

#### Internet manzillari

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://www.csipi.uz>